

“TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARI NASHRLARIGA DOIR MULOHAZALAR

Hakimova S.A.

BuxDU Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik yo‘nalishi, 2- bosqich magistranti
E-mail: s.a.hakimova@buxdu.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada Alisher Navoiyning tarixiy asari “Tarixi anbiyo va hukamo” ning nashrlariga doir fikr- mulohazalar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Tarixi muluki Ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, payg‘ambar, nashr, manba,

ABSTRACT

The article describes the opinions on the publications of Alisher Navoi’s historical work “Tarihi anbiyo va hukamo”.

Keywords: Alisher Navoi, “Tarixi muluki Ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, prophet, publication, source.

Ulug‘ shoir Alisher Navoiy nafaqat lirik asarlari bilan, balki ilmiy, tarixiy va tazkira asarlari bilan ham mumtoz adabiyotimizni janr ko‘lamini kengaytirdi. Ayniqsa, uning “Tarixi muluki ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo” singari nasriy asarlari o‘zbek nasri taraqqiyotida muhim hodisa sanaladi.

Alisher Navoiyning bu tarixiy asarlarini o‘rganish borasida talaygina ishlar amalga oshirilgan. Ana shunday ishlar sirasiga tarixiy asarlarining nashrlari borasidagi ishlarni ham ta’kidlash mumkin. Biz “Tarixi anbiyo va hukamo” nashrlari haqidagi mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz.

“Tarixi anbiyo va hukamo” asari adabining XV jildligi 1968-yilda nashr qilindi. Mazkur nashr Latif Xalilov tomonidan tayyorlangan. Bu keyingi nashrlardan birmuncha farq qiladi.

Asarning keyingi nashri 2000-yilda XX jildlik “Mukammal asarlar to‘plami” (MAT) tarkibida Latif Xalilov tomonidan ikkinchi bor katta o‘zgarishlar bilan nashr etilgan. Bu ikkinchi nashrga ham ma’lum bir o‘zgartirishlar kiritildi.

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarining navbatdagi nashr manbashunos olim Sayfiddin Rafiddinov tomonidan 2011-yilda nashr etilgan. Bu nashr shoir asarlarining “To‘la asarlar to‘plami”dan o‘rin olgan. Bu nashr oldingi nashrlardan hajm jihatidan

deyarli farq qilmasa-da, asar matnidagi ba’zi kamchiliklar tuzatilganini ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, asar sharq tarixshunosligida bo‘lgani singari Odamning paydo bo‘lishi, undan so‘ng payg‘ambarlar tarixi to‘g‘risidagi hikoyalardan boshlanadi. Ular ketidan obidlar va hakimlar to‘g‘risida so‘z boradi.

Har uchala nashrlar qiyosiy o‘rganilganda ular hajmi o‘rtasida ma’lum bir tafovutlar borligi kuzatiladi. Biz matnni qisqartirish bilan bog‘liq o‘rinlarni asarning quyidagi qismlarida ham kuzatdik.

Asarda payg‘ambarlar hayoti hikoya qilinishi Odam(a.s) dan so‘ng Nuh binni Malik binni Matusholak binni Idris bilan davom etadi (XV tomlikda). MAT da hamda To‘la asarlar X jildlikda Odam va Nuh payg‘ambarlar orasida Shis (a.s), Anush, Qinon binni Anush, Maxloyil binni Qinon, Yazid binni Mahloyil, Idris (a.s), Matushlax binni Axnux kabi payg‘ambar nomlari tushurib qoldirilgan. Mukammal asarlar to‘plami 20 jildlik hamda Sayfiddin Rafiddinov nashrida asl manbaga tayangan holda qayta tiklangan.

“Shis (a.s.) – Odamdin so‘ngra aning o‘rnida o‘lturub, aning avlodig‘a muhofazat boshladi.Va Bori taolo Shisg‘a nubuvvat karomat qildi va anga sahifa nozil bo‘ldi Va Ka’ba binosin tosh va gach bila Shis a.s. imorat qildi...”

“Anush payg‘ambar emas erdi, ammo viloyatdin nasibi bor erdi.Va odil va saxiy kishi erdi. Atbo‘ va avlodin Odam dinig‘a da’vat qildi va avval kishikim,xurmo yig‘ochi ekti ,ul erdi. Va avval kishikim, sadaqa rasmin paydo qildi, ul erdi.Ul sababdin aning zamonida rafohiyyat ko‘p bo‘ldi. Va oncha ko‘y va uy va soyir bahoyim paydo bo‘ldikim, hech hisobin bilmas erdi. Ul buyurdikim, chun Haq taolo hisobdin ortuq mol karomat qilib qilibdur, har mingdin birin ayirib, muhtojlarg‘a bering...”

“Idris (a.s.) suryoniy payg‘ambardur. Otasi Yazid zamonida butparastliq shoy’e bo‘ldi. Anga vahy keldikim, ul elni butparastlikdan man qilg‘ay. Cherik tortib, ko‘p jihod qilib, Qobil avlodinkim, butparastliq qilur erdilar, qatl va asir qilib, g‘azva va jihod qoidasin ul arog‘a kiyurdi. Va ani xalq musallasun- ne’mal dedilarkim, uchunchi payg‘ambar va uchunchi hakim va uchunchi podshoh erdi...”

Asarda har bir hikoyadan so‘ng she’riy parchalar keltirilgan. Ruboiylarning hammasi tarona (to‘rtala misrasi ham qofiyalanuvchi) shaklida berilgan. Bu she’rlar tarbiyaviy –ma’rifiy xarakterga ega bo‘lib, har bir qissaning hissasi sanaladi. Masalan yuqoridagi Idris (a.s.) hikoyasidan so‘ng berilgan quyidagi to‘rtlik fikrimizga dalil bo‘la oladi:

Chu Idris olamda bo‘ldi muqim,
Rasul erdiyu, podshohu hakim.
Agarchi anga bo‘ldi uchmoq makon,

Jahon ichra xud qolmadi jovidon.¹³⁵

Asardan parchalar tushib qolishi bilan bog‘liq tafovutlarni 1968-yilgi nashrda yana kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Nuh (a.s) bilan ulul-azim payg‘ambar Ibrohim orasida Yofas, Som, Hom, Hud, Solih (a.s), Xantala ibni Safvon kabilarning nomlari tushurib qoldirilgan. Masalan, MAT da hamda Sayfiddin Rafiddinov nashrida Yofas haqida quyidagi fikrlar keltiriladi:

“Yofasni payg‘ambari mursal debdurlar. Va ani yeti o‘g‘li bor erdi: Turk, Xazar, Siqlob, Rus, Misk, Chin, Kamori. Ba’zi sekiz o‘g‘il debdurlar va sekizinchi Torax debdurlar. Va Iskandar Zulqarnayn Yofasning to‘rtinchi o‘g‘lidur, Rus naslidin...”

Som haqida Navoiy quyidagilarni bitadi. “Somni ham ba’zi payg‘ambari mursal debdurlar va ko‘prak anbiyo. Va Eron muluki aning naslidindurlar. Va aning olti o‘g‘li bor erdi. Ba’zi to‘quz o‘g‘ul debdurlar. Kayumarsni ham aning avlodidin tutubdurlar...”¹³⁶

Ibrohim (a.s) va payg‘ambari mursal deya izohlangan Ismoil (a.s) o‘rtasida ulug‘ payg‘ambarlardan biri bo‘lgan, Alloh taolo u zotni Qur’oni karimning A’rof, Hud, Hijr, Shu’aro, Naml va boshqa suralarida zikr qilgan Lut (a.s) nomlari keltirilmay tushurib qoldirilgan.

Lut (a.s.) haqida quyidagilarni bilishimiz mumkin: “Lut (a.s.) Ibrohim (a.s.) ning qardoshi Xorun o‘g‘li erdi. Tengri taolo unga nubuvvat karomat qilib, Mu’tafikot ahli hidoyat va irshodig‘a yibordi. Va Mu’tafikotni ba’zi besh shahr va ba’zi yeti shahr debdurlar va ba’zi ba’zi axli atrix bu shaharlarni Siyston bila Kirmon arosida debdurlarki, holo Lut biyobonig‘a mashhurdir. Va ba’zi Ardo navohiysidakim, Shom multkida debdurlar...”

Masnaviy:

Gar Lut va gar livota ahli –
Kim yetgali keldilar jahong‘a.
Ko‘rguzmadi bu jahoni g‘addor,
Ne yaxshig‘a mehr, ne yomong‘a.¹³⁷

Sayfiddin Rafiddinov nashrida Lut (a.s) dan so‘ng voqealar Ismoil (a.s) va Is’hoq (a.s) bilan davom etadi. 1968-yilda nashr etilgan 15-tomlikda esa Is’hoq (a.s) tushurib qoldirilgan.

Navoiy Is’hoq (a.s.) haqida shunday hikoya qiladi : “Is’hoq (a.s.) payg‘ambari mursaldur. Haq taolo ani Shom ahlig‘a yibordi va ul Shom xaloyiqni Tengri taolog‘a dalolat qildi. Va aning iki o‘g‘li bor edi. Rufaqodinki, amuzodasi erdi. Birining oti Iys,

¹³⁵ Navoiy A.To`la asarlar to`plami.T.,2011.B.542

¹³⁶ Navoiy A.To`la asarlar to`plami.T.,2011.B.542

¹³⁷ Navoiy A.To`la asarlar to`plami.T.,2011.B.551

birining Ya'qub. Va Shomda Is'hoq ko'zlarini nobino bo'ldi va farzandlaridin Iys ovg'a moyil erdi, Ya'qub qo'y asramoqqa. Va Is'hoq a.s. ning muhabbatini Iysg'a ko'p erdi va Rufaqoning Ya'qubqa".¹³⁸

Har uchchala nashrda ham Ya'qub a.s bilan davom etuvchi payg'ambar hikoyalari "Yusuf (a.s.) qissasi andin mashhurroqdur..." deya ta'rif berilgan Yusuf (a.s.) qissasidan so'ng, Muso va Horun (a.s.) hikoyalari keltiriladi (1968-yilgi nashrda).

Sayfiddin Rafiddinov nashrida esa Yusuf (a.s.) hamda Muso va Horun (a.s.) oralarida mursal deya ta'riflangan Xizr (a.s.) va Ayyubi Sabur (a.s.), "xatibul-anbiyo" – Shuayb (a.s.) nomlari ostida hikoyalar beriladi.

Navoiy Xizr (a.s.) ni mursal payg'ambar safiga kiritadilar. Va ul Arfaxshad ibni Somning o'g'lonlaridindur va Zulqarnayn zamonida aning mulozimi erdi. Zulqarnayn hayvon suyi xayoli bila zulumotqa kirgonda Xizr (a.s.) ani boshlab kirdi. Va derlarkim, Ilyos (a.s.) dog'I bila erdi. Umidkim, quyiroq zikr bo'lg'ay. Va ba'zi debdurlarkim, Haq taolo Xizr (a.s.) g'a ilmi ladunni nasib qildiva hayvon suyi iborat ondindur.

She'r:

Xizr umrin tilarlar ahli xirad,
Yor vaslidurur, hayoti abad.

Payg'ambarlar hayotini hikoya qilish Muso va Horun (a.s.) dan so'ng Yuvsha' ibni Nun a.s., Kolut ibni Yufno (a.s.) Hizqil (a.s.), Ilyos (a.s.), Alyasa' (a.s.), Zul-Kifl (a.s.), Ashmuil (a.s.) va Dovud ibni Iysho (a.s.) bilan davom etadi. Lekin Latif Xalilov tomonidan chop etilgan 1968-yilgi nashrda Muso va Horun a.s. dan so'ng Dovud binni Iysho sarlavhasi beriladi. Yuqorida nomlari zikr etilgan payg'ambarlar qatordan tushurib qoldiriladi. Shu nashrning o'zi Sulaymon binni Dovud alayhumus-salom payg'ambar bilan davom etar ekan, hikoyalar ketma-ketligi Luqmoni Hakim, Iso binni Maryam salavotullohi alayh, As'hobi qahf va ba'zi mutafarriq axbor bilan nihoyasiga yetadi va Hukamo zikri deb nomlanuvchi kichik qismi boshlanadi. Ammo MAT hamda Sayfiddin Rafiddinov nashri biroz farq qilib, Sulaymon ibni Dovud (a.s.) Luqmoni Hakim, Yunus ibni Matto (a.s.), Omus va Muso va Ma', Sodiq va Sadduq va Salum, Finjor Muso va Momul-qavsi va Javfaraf va San'a Kusi va Uryo, Navoyil va Hukoy, Zijurmo va Madohi, Shu'yo, Uzayr (a.s.), Zakariyo va Yahyo (a.s.), Maryam binti Imron, Iso ibni Maryam, As'hobi qahf va ba'zi mutafarriq axbor, Jirjis (a.s.) bilan anbiyolar to'g'risidagi hikoyalar tugaydi. Shundan so'ng Navoiy quyidagi baytni keltiradi:

Chun mu'tabar anbiyo so'zi topti savod,
Ubbod ila hikmat ahlin ettuk bunyod.

¹³⁸ Navoiy A. To`la asarlar to`plami. T., 2011. B. 552

Bayt mazmunidan ham anglashiladiki, anbiyolardan so‘ng ubbos (obidlar –ibodat qiluvchilar) bilan ya’ni Barsisoy Obid, Shamsun Obid, Jarih Rohib kabilar hikoya qilinadi. So‘ng Hukamo zikri bilan tugallanadi.

Asarning Hukamo qismi nashrlar o‘rtasida hajm jihatdan deyarli farq qilmaydi. Ikkala nashrda ham Luqmon to‘g‘risidagi hikoya bilan boshlanib, o‘n uch mutafakkir shulardan o‘ntasi qadimiy yunon faylasuflari (Luqmon, Fishog‘urs, Buqrot, Buqrotis, Suqrot, Aflatun, Aristotilis, Bolinus, Jolinus, Batlimus)va uchtasi g‘arb mutafakkirlari (Jomasp, Sodiq, Buzurjmehr) haqida so‘z boradi va ularning hikmatli gaplari keltiriladi.

Demak xulosa qiladigan bo‘lsak, “Tarixi anbiyo va hukamo” Navoiyning o‘zi ko‘rsatganiga binoan uch mustaqil bo‘lakdan iborat. Birinchisi, (payg‘ambarlar) tarixi, ikkinchisi, ubbos (obidlar-ibodat qiluvchilar) hamda uchinchisi “Hukamo zikri “ (Hakimlar to‘g‘risidagi so‘z) kabilar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Asarlar.O‘n besh tomlik. XV tom Tarixi anbiyo va hukamo. Nashrga tayyorlovchi Latif Xalilov- T.:1968. -B.232.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 8-jild. Tarixi anbiyo va hukamo. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.Nashrga tayyorlovchi Sayfiddin Rafiddinov – T.: 2011.-B. 539.
- 3.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.XVI jild.Tarixi anbiyo va hukamo. Fan.-Nashrga tayyorlovchi Latif Xalilov T.:2000.-B.97.